

Urganch davlat universiteti “Tarix” kafedrasi, PhD, Yusupov Ahmedjon Shonazarovich taqrizi ostida

Rahimova Zeboxon

Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti

232-tarix guruhi talabasi

+99890 077 33 04

Email: rahimovazeboxon04@gmail.com

ORSID ID: 0009-0001-3014-7105

SULTON MUHAMMAD XORAZMSHOH DAVRIDA SIYOSIY INQIROZNING SABABLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mo‘g‘ullar istilosi arafasidagi Xorazmshohlar davlatida yuz bergan siyosiy bo‘linishlar va Xorazmshohlar davlatini og‘ir ahvolga tushib qolishiga olib kelgan bir qator sabablar tadqiqotchi olimlar xulosalaridan kelib chiqib keltiriladi.

Kalit so‘zlar. Sulton Muhammad Xorazmshoh, Turkon Xotun, Gurganch, Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O‘zloqshoh, Chingizxon, Mahmud Xorazmiy, Sartovul.

Аннотация. В данной статье на основе выводов ученых-исследователей представлены политические расколы, произошедшие в государстве хорезмшахов накануне монгольского нашествия, и ряд причин, которые привели государство хорезмшахов в тяжелое положение.

Ключевые слова. Султан Мухаммад Хорезмшах, Тюркон Хотун, Гурганч, Джалалуддин Мангуберди, Кутбуддин Озлокшах, Чингисхан, Махмуд Хорезми, Сартовул.

Annotation. In this article, the political divisions that occurred in the Khorezmshah state on the eve of the Mongol invasion and a number of reasons that led the Khorezmshah state to fall into a difficult situation are presented based on the conclusions of research scientists.

Keywords. Sulton Muhammad Xorazmshoh, Turkon Xotun, Gurganch, Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O‘zloqshoh, Chingizxon, Mahmud Xorazmiy, Sartovul.

KIRISH.

Bilamizki, juda katta hududni o‘z ichiga olgan buyuk Xorazmshohlar davlatida Sulton Alouddin Muhammad hukmronligi davrida siyosiy inqiroz yuzaga keladi. Sulton Alouddin Muhammad Xorazmshoh hukmronligi vaqtida uning onasi Turon Xotunning qilmishlari, o‘g‘illari o‘rtasida toj-u taxt uchun paydo bo‘lgan ziddiyatlarning sabablarini ushbu maqolada atroflicha tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tariximizning yorqin shaxslari Sulton Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin Manguberdi haqida ko‘plab tillarda, turli davrlarda asarlar yaratilgan, ilmiy tadqiqotlar qilingan. Shihobiddin an-Nasaviy “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni” asari, Iso Jabborovning “Buyuk Xorazmshohlar davlati”, Ziyo Bunyotovning “Anushteginiy- Xorazmshohlar davlati” asarlari shular sirasidan bo‘lib, muhim manbalar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Sulton Muhammad Xorazmshoh davrini o‘rganishda tanqidiy janrdagi uslubiy metodologiyadan foydalanildi. Ya‘ni Xorazmshohlar saltanati, Sulton Muhammad Xorazmshoh va Sulton Jaloliddin Manguberdi haqida bitilgan manbalar, tadqiqot ishlari tanqidiy asosda o‘rganilib chiqildi. O‘ylaymizki, ushbu maqola ilm oluvchilar toifasiga xush keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Hijriy 596 yil shavvol oyining 20-kunida (1200-yil 3-avgust) Gurganch aholisi, davlat a‘yonlari va amirlari ishtirokida Xorazmshohlar davlati taxtiga Takash va Turkon Xotun o‘g‘ili Qutbiddin Muhammad o‘tirdi. Otasining Alouddin laqabini qabul qildi. Keyinroq esa Sanjar II nomini oldi. Xorazmshoh Alouddin Muhammad hukmronligi boshlanishida jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Bular- sulola vorislarining toj-u taxt uchun kurashlari va g‘uriylar Xorazmga qarashli yerlarga hujum qilib turishlari bilan bog‘liq chigalliklar edi. [4]

Qutbiddin Muhammad otasining Alovuddin laqabini qabul qiladi va shu nom bilan taniladi. Keyinchalik Ikkinchi Iskandar (Iskandari Soniy), ikkinchi sulton Sanjar nomlarini ham olgan. Hukmronligi boshlarida toj-u taxt uchun kurashlar avj olib g‘uriylar Xorazmga qarashli yerlarga hujum qilib tursa-da, hokimiyatni saqlab qola olgan. Shoh Iskandari Soniy laqabini olish bilan birga saroyda Zulqarnayn navbasini (shoh kirishi sharafiga chalinadigan musiqiy madhiya) joriy etadi va uni ijro qilish uchun bo‘ysundirilgan hududlar hokimlarini tayinlaydi. Uni 27 ta oltin nog‘oralarda ijro qilishgan. Bu Alovuddin Muhammadni o‘z davrining buyuk hukmdori bo‘lganligidan nishonadir. Bu shon-shuhrat unga kamlik qilib, saljuqiy sulton Sanjarning uzoq vaqt davomida hokimiyatni boshqarganiga havas qilib o‘ziga Sanjar II deb yozilgan muhr tayyorlashga buyruq bergan. Uning bu yangi nomi o‘g‘illarining unvonida ham o‘z aksini topadi. Alovuddin Muhammad davrida Xorazmshohlar davlati shimolda Orol, g‘arbda Kaspiy dengizigacha, janubda Iroq va G‘aznagacha, sharqda Yettisuvgacha kengaygan. Hududlarning katta maydonlarga cho‘zilganligi ham boshqaruvni qiyinlashtirgan albatta. [4]

Feodal monarxiyalarga xos ichki ziddiyatlar ayniqsa saroydagi va uning atrofidagi nizolar bu yerda ham mavjud edi. Mo‘g‘ullar istilosi arafasida Xorazmda asli ikkihokimlik o‘rnatilgan desa bo‘ladi. Butun mamlakatda shoh va sulton deb Alouddin Muhammad hisoblansa-da, ichki va tashqi siyosatni olib borishda ikkinchi hokim shohning onasi Turkon-xotun hisoblangan. U xattoki ayrim masalalarni hal qilishda birinchi bo‘lgan, Sultonning ba‘zi farmon va buyruqlarini inkor etgan va o‘z nomidan farmon chiqarib istagan masalalarini hal qilish qudratiga ega bo‘lgan. Shoh hech vaqt e‘tiroz bildirmagan, chunki bir tomondan ona hurmati, ikkinchidan Turkon-xotunning tarafdorlari uning urug‘idan chiqqan turk amirlari ko‘pchilikni tashkil etgan. Malika nafaqat Sulton ustidan hukmronlik qilibgina qolmay, moliya masalalariga ham aralashib xo‘jayinlik qilgan, oliy amirlar va amaldorlarga hukmini o‘tkazgan. Turkon-xotun xatto taxt vorisini o‘zi belgilagan. Bunday holat, shubhasiz, Xorazm davlatini bo‘shashtirishga va uning inqirozini kuchayishiga olib kelgan. [2]

Sulton amalga oshirgan tadbirlaridan yana biri, uning davlatni o‘g‘illariga bo‘lib bo‘lib bergani va ularning har qaysisini mamlakatlarga hukmdor qilib qo‘ygani bo‘ldi. Xorazm, Xuroson, Mozandarinni boshqarish huquqini u o‘z valiahdi Qutbiddin O‘zloqshohga berdi. Farmonlarini tasdiqlash uchun unga laqab emas, quyidagi tarzda “Islom amirining yordamchisi, sulton Sanjarning o‘g‘li Sulton Abul Muzaffar O‘zloqshoh” degan nom berildi. Ularning odatiga ko‘ra aslida valiahdning laqabi tug‘roga yozilmagan. U otasi o‘rnini egallagandan keyingina uning barcha laqablarini olgan. Uning (Qutbiddinning) ikki akadan – Jaloliddin Manguberdi va Rukniddin Fursanjtiydan oldin taxt vorisi qilib belgilanishi Sultonning mavqei yuksak onasi Turkon Xotun amriga bo‘ysungani bilan izohlanadi. Negaki Qutbiddinning onasi, uning boshqa bolalarining onasidan farqli o‘laroq, Turkon xotunga aloqador bo‘lgan Bayot urug‘idan edi. Bu urug‘, o‘z navbatida, Yemek qabilasining bo‘laklaridan biri hisoblanardi. [8] Xorazmshoh Jaloliddinni munosib ko‘rsa-da, onasiga e‘tiroz bildira olmaydi. Turkon Xotun Xorazm davlatiga ko‘p xayr va hasanodlar qilgan bo‘lsa-da, unga yetarlicha zarari ham tekkan edi. Balki mana shu valiahd tayinlashdagi ishi uning eng katta zarari edi. [1]

Nasaviyning guvohlik berishicha, makkor Turkon Xotun o‘g‘liga shu daraja o‘z ta‘sirini o‘tkazganki, natijada Xorazmshoh Muhammad mamlakat ichkarisidagina emas, balki xalqaro maydonda ham Xorazmning yagona hukmdori sifatidagi rolini boy berdi. Bundan tashqari, katta qudratga ega bo‘lgan sarkardalarining ko‘pchiligi qipchoqlardan bo‘lgani bois, hukmdor onasiga yon berishga majbur edi. [53] Keyinchalik, Sulton Alouddin Muhammad mo‘g‘ullar oldida qochib borgan Obeskun orolida muazzam davlatining chorasizlik hislari bilan valiahdini o‘zgartirdi. Nasaviyga ko‘ra “Jaloliddindan boshqa uning o‘zining o‘chini oladigan va davlat to‘playdigan o‘g‘li yo‘q ekanligi” haqidagi gaplari bilan yangi valiahdini e‘lon qilib boshqa ikki o‘g‘lidan unga itoat qilishlarini talab qildi. [6]

Chingizxon bosqini arafasida xorazmshohlar sulolasi dunyoning eng qudratli siyosiy kuchlaridan biriga aylangandi. Xuddi shu davrda sharqda mo‘g‘ullarning yirik imperiyani tashkil qilingan edi. Bu esa, XIII asr

o'ninchi yillari oxirida Sharqda ikki yirik kuch - xorazmshohlar va chingizylarning o'zaro to'qnashishlari zaruriyatini shakllantirdi.[7]

Mo'gullarning Xorazmga yurish qilishining sababi Xorazmga yuborilgan katta savdo karvonining O'tror noibi G'oyirxon Inolchiq tomonidan talanishi va savdogarlarning o'ldirilishi hisoblanadi.

Mo'gullarning Xorazmshohlar davlatiga qarshi yurishini keltirib chiqargan sabablardan yana biri sifatida Alouddin Muhammad o'zini olamni boshqara oladigan birgina hokim deb, o'ziga haddan ziyod baho berganligidir deb hisoblaydilar. Bosib olgan yerlardagi avvalgi hokimlarni yo'qota borib, xorazmshoh bu yerlarni o'z qarindoshlari, amirlari va mulozimlariga iqto sifatida ulashib berdi va bu bilan davlatni boshqarish tartibini ancha buzdi va oqibatda, avvalgi hokimliklarga xizmat qilgan lashkarboshi va amaldorlarning hamda fuqarolarning noroziligini keltirib chiqardi. [5]

Biroq Chingizxonning Xorazmshohlar davlatiga qilgan hujumining yana bir sababi bor edi. Dastavval Chingizxon va Sulton Alouddin Muhammad o'rtasida diplomatik aloqalar mavjud edi. Ikki o'rtada elchilar almashib turdi. 1218-yilda Chingizxon Xorazmga katta savdogarlar karvonini yuboradi.

Karvon mo'g'ullar mamlakatidan O'troga kelganda Sultonning tog'asining o'g'li Inolxon 20 ming askar bilan turardi. U O'tronni sulton noibi sifatida boshqarardi. [8] Inolchiq (Inolxon) savdogarlar karvonini ko'rib nafs ustunlik qilib, karvonni talab, savdogarlarni qirib yuboradi. Faqat bitta tuyakashgina tirik qolib, bo'lgan voqeani Chingizxonga yetkazadi. Sulton bu voqeaga nisbatan chora ko'rmaydi. Chunki Inolchiq Sultonga onasi Turkon Xotun tarafidan qarindosh edi. Aynan shu voqealardan so'ng Chingizxonning Sulton Muhammadga nisbatan adovati paydo bo'ladi. Bu esa g'oyat ulkan hududda joylashgan Xorazmshohlar davlatining tanazzuliga sabab bo'ldi.

XULOSA.

Yuqoridagi tahlil va o'rganishlar natijasida Sulton Muhammad Xorazmshoh hukmronligi boshlanishida katta yutuqlarga erishgan bo'lishiga, saltanatida 27 davlat itoatda turganligiga qaramay davlat inqirozga yuz tutishiga quyidagilarni sabab sifatida keltirishimiz hamda xulosa qilishimiz mumkin:

-Sulton hokimiyatni hech kim bilan bo'lishishni istamagan va o'zidan kuchli sulton yo'q deb g'aflatda qolgan;

-Sultonning onasi Turkon Xotunning hokimiyatga aralashuvi;

-o'lkalarda boshqaruvni qarindosh urug'lariga, o'g'illariga bo'lib berishi;

-qo'shinlarni bir joyga to'plamay, mudofaa taktikasini qo'llashi;

oxir oqibat davlatning zaiflashuviga hamda mo'g'ullarning bosqiniga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Abdulloh Shoshiy, "Mo'g'ul bosqini yohud Musulmonlarning qonli kechmishi", Islamic propagation office in Rabwah, P.O.Box 29465, 76-bet.

2. Azimova A. "Alovuddin Muhammad Xorazmshoh hukmronligi" maqola, 203-bet. <https://interonconf.org/index.php/ger/article/download/3454/3080>

3. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/194>

4. Bunyotov Z. "Anushteginiy-Xorazmshohlar davlati(1097-1231)". "Yangi asr avlodi", 2023 yil, 115-116 betlar.

5. Jabborov I. “Buyuk Xorazmshohlar davlati”, “Sharq nashriyot-matbaa Konserni Bosh tahririyati, 1999 yil, 120-121 bet.
6. Meryam Gurbuz, “Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot”, “Ogahiy” nashriyot-matbaa, Urganch-2022, 60-bet.
7. Xorazmshohlar davlati inqrozi <http://khorezmiy.uz/oz/pages/view/114>
8. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni”, Toshkent, “O‘zbekiston nashriyoti”, “Yozuvchi nashriyoti”, 1999-yil, 55-60-bet.